



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ESSE – BADIY IJOD VA PUBLITSISTIKA SINTEZI SIFATIDA (O‘ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)

Narzullayeva Husnora Bahodir qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida esse janrining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Esse janrining badiiy (obrazlilik, lirizm) va publitsistik (ijtimoiy dolzarblik) xususiyatlari, shuningdek, uning sintetik tabiati yoritilgan. Mustaqillik davrida shaxs erkinligi va milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan ehtiyoj ortishi natijasida esse janrining faollashuvi hamda Ibrohim G‘ofurov kabi adiblar ijodida bu janrning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Esse janri, o‘zbek adabiyotshunosligi, badiiy-publitsistik uslub, adabiy tanqid, sintez janr, Ibrohim G‘ofurov, tarixiy xotira, ijtimoiylik.

ЭССЕ КАК СИНТЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА И ПУБЛИЦИСТИКИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ)

Нарзуллаева Хуснора Бахадир кизи

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, магистрант

Аннотация

В данной статье анализируются история формирования, этапы развития и теоретические основы жанра эссе в узбекском литературоведении и литературной критике. Освещены художественные (образность, лиризм) и публицистические (социальная актуальность) особенности жанра эссе, а также его синтетическая природа. Раскрывается активизация жанра эссе в результате растущей потребности в личной свободе и национальном самосознании в период независимости, а также его уникальное проявление в творчестве таких писателей, как Иброхим Гафуров.

Ключевые слова: Жанр эссе, узбекское литературоведение, художественно-публицистический стиль, литературная критика, синтетический жанр, Иброхим Гафуров, историческая память, социальность.

THE ESSAY AS A SYNTHESIS OF LITERARY CREATION AND PUBLICISM (ON THE EXAMPLE OF UZBEK LITERATURE)

Narzullayeva Husnora Bahodir qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Master’s Student

Abstract

This article analyzes the history of formation, stages of development, and theoretical foundations of the essay genre in Uzbek literary criticism and literary review. The artistic (imagery, lyricism) and publicistic (social relevance) features of the essay genre, as well as its synthetic nature, are highlighted. The active development of the essay genre resulting from the growing need for personal freedom and national identity during the period of independence, and its unique manifestation in the works of writers such as Ibrohim G'ofurov, are revealed.

Keywords: Essay genre, Uzbek literary criticism, artistic-publicistic style, literary criticism, synthesis genre, Ibrohim G'ofurov, historical memory, sociality.

O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida “esse” termini nisbatan yangi atama hisoblanadi. XX asr boshlarida – jadid adabiyoti va keyinchalik sovet davri adabiy jarayonida – bugungi “esse”ga muqobil bo‘lgan janr va uslubiy shakllar mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ular boshqa nomlar bilan atalgan. Masalan, o‘tgan asrlarda o‘zbek adabiy nashrlarida “badiiy maqola”, “adabiy-tanqidiy mulohaza”, “publitsistik ocherk” kabi atamalar qo‘llanilgan. Bunday asarlar mohiyatan esse janriga yaqin bo‘lib, muallifning adabiy va ijtimoiy mavzulardagi erkin mulohazalarini aks ettirgan. Biroq o‘sha davrda “esse” atamasi deyarli ishlatilmagan – asosan maqola yoki ocherk janri doirasida talqin etilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach milliy adabiyotshunoslikda “esse” termini va tushunchasi keng qo‘llanila boshladi. Yangi davrga kelib adabiy jarayonda erkin janrlarga ehtiyoj ortdi va G‘arb adabiyoti ta‘sirida “esse” atamasi faollashdi. Endilikda “esse” so‘zi bevosita adabiy matnlarga nisbatan ishlatilmoqda hamda “badiiy esse,” “adabiy esse” kabi birikmalar ilmiy-amaliy muomalaga kirdi. “Badiiy esse” deganda adabiy-badiiy uslubda yozilgan, badiiy tasvir vositalarini qo‘llagan esse; “adabiy esse” esa adabiyot va san‘at hodisalarini erkin tahlil qiluvchi publitsistik insho tushuniladi. Terminologik aniqlik ortib, essening mustaqil janr sifatida tan olinishi mustaqillik davrining muhim yutug‘iga aylandi.

O‘zbek adabiyotshunosligida esse janri maxsus o‘rganish obyekti sifatida yaqinda shakllandi. So‘nggi yillarda adabiyot nazariyasiga oid qo‘llanmalar va ayrim monografiyalarda essega bag‘ishlangan bob yoki bo‘limlar paydo bo‘ldi. Masalan, “O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi” kabi nazariy ishlarda esse alohida janr sifatida tilga olinadi. Shuningdek, ayrim ilmiy maqolalarda “Esse janri va uning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi” mavzusida bahs yuritilgan. Bu manbalarda odatda quyidagilar qayd etiladi:

Esse janri o‘zbek adabiyotida XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lib, dastlab badiiy-publitsistik yo‘nalishda shakllangani ko‘rsatiladi. “O‘zbek adabiyotida esse janri XX asrning 60-yillarida shakllanib, avvalo badiiy-publitsistik yo‘nalishda o‘z ifodasini topdi.” Ya‘ni 1960-70-yillarda adabiy tanqid va publitsistika sohasida paydo bo‘lgan ayrim matnlar bugungi tushunchadagi esselarning debochasi edi.

Mustaqillik davri adabiyotida esse janriga bo‘lgan ehtiyoj ortgani ta‘kidlanadi. Bunga o‘sha davrdagi ijtimoiy-ma‘naviy omillar sabab bo‘ldi. Xususan, shaxs erkinligi, milliy tarix va o‘zlikni anglash, ma‘naviy yangilanish mavzulariga qiziqish kuchaydi. Shu omillar natijasida adabiy muhitda erkin mulohaza yuritish imkonini beruvchi esse janri ommalashdi.

Esselarga oid nazariy tadqiqotlarda janrning milliy adabiyotimizdagi rivojlanish xususiyatlari yoritiladi. Unda Sharq adabiy an‘analaridagi pandnoma, xotira kabi janrlar bilan esse o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Umuman olganda, o‘zbek adabiyotshunosligi esse janrini milliy adabiy jarayon kontekstida o‘rganib, unga o‘ziga xos yondashuvlar ishlab chiqmoqda.

O‘zbek adabiyotida esse janrining an‘analarini ko‘rish uchun, avvalo, yirik adib va adabiyotshunoslarning essega yaqin uslubda yozilgan asarlarini eslash lozim. Jumladan, 1970-80-yillar va undan keyingi davr adabiy tanqidchilari hamda ma‘rifatparvar yozuvchilar ijodida esselarga xos unsurlar kuzatiladi. O.Sharafiddinov o‘zining adabiy-tanqidiy maqolalarida ko‘pincha esse uslubiga murojaat qilgan, ya‘ni badiiy tahlilni shaxsiy mulohazalari bilan uyg‘unlashtirgan. I.Haqqul va N.Karimov kabi adabiyotshunos olimlarning asarlarida ham muallifning subyektiv fikrlari, xotiralari va falsafiy mulohazalari bilan yo‘g‘rilgan matnlar uchraydi – bularni shartli ravishda esse tarzidagi bitiklar deb atash mumkin. Ayniqsa, Ibrohim G‘ofurov ijodida esse janri alohida ahamiyat kasb etadi. Uning turli adabiy va tarixiy mavzulardagi esselari o‘zbek o‘quvchilari orasida mashhur bo‘lib, muallifning milliy tarix va ma‘naviyat haqidagi chuqur mushohadalarini badiiy boy tasvirlar orqali ifodalaydi. G‘ofurov esselari nafaqat adabiy-tanqidiy maqola sifatida, balki muallifning ichki kechinmalari va falsafiy qarashlarini aks ettirgan badiiy asarlar sifatida ham e‘tirof etiladi.

Umuman olganda, o‘zbek esse an‘analarida bir necha yetakchi mavzuni kuzatish

mumkin. Avvalo, shaxsiy xotira va tarixiy xotira mavzusi, ya'ni muallifning o'z hayoti va xalq tarixidan kelib chiqqan esdalik va mulohazalarni qalamga olishi – asosiy o'rin tutadi. Yozuvchilar ko'pincha o'z boshlaridan kechirgan voqealarni yoki tarixiy shaxslar taqdirini eslab, ular yuzasidan mulohazalarini esse shaklida bayon etadilar. Milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat va tarixiy adolat masalalari ham o'zbek esselarining muhim mazmuniy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunday esselerde o'zlik, Vatan, millat tarixi, milliy qadriyatlar haqida falsafiy mushohadalar yuritiladi. Shu bilan birga esse janri muallifga jamiyatdagi dolzarb muammolar haqida ham erkin yozish imkonini beradi – ijtimoiy adolat, ma'rifiy tanazzul yoki zamondoshlar qiyofasi kabi mavzular essechilarning diqqat markazida bo'lgan. Demak, o'zbek adabiyotida esse janri an'anasi asosan shaxsiylik va milliylik mezonlari atrofida shakllangan bo'lib, unda muallifning ichki kechinmalari xalq hayoti va tarixiy xotira bilan chambarchas bog'lanadi.

Esse janri ko'pgina jihatlar bilan badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Avvalo, esseda obrazlilik va badiiy tafakkur seziladi – muallif fikrini oddiy mantiqiy bayon qilish bilan cheklanmay, balki badiiy obrazlar va ramzlar orqali ifodalashga intiladi. Masalan, esse muallifi o'z kechinmalarini tasvirlash jarayonida metafora va poetik timsollardan foydalanib, o'quvchida estetik tuyg'u uyg'otadi. Shuningdek, esseda hikoyachilik unsurlari ham bo'lishi mumkin: muallif o'z fikrini kuchaytirish yoki isbotlash maqsadida real hayotdan yoki tasavvuridan kichik bir voqea yoxud lavhani hikoya qilib beradi. Bu orqali esse matni quruq mushohada bo'lib qolmay, qiziqarli bir rivoyat ohangini kasb etadi.

Badiiy adabiyotga xos yana bir jihat – lirizm – esse janrida ham namoyon bo'ladi. Lirik asarlardagi kabi esse matnida ham muallifning ichki olami, hissiy-kechinmalari nozik ohangda yetkaziladi. Ko'pincha esse muallifi birinchi shaxs “men” nomidan so'zlab, dilidagi tuyg'ularini o'quvchi bilan bo'lishadi. Bu esa asarga samimiylilik va emotsional ta'sir kuchini baxsh etadi. Esselar mazmunan falsafiy bo'lsa-da, uslub jihatidan psixologik tafsilotlar va individual kechinmalar tasviri muhim o'rin tutadi. Ichki monolog shakli, ya'ni muallifning o'zi bilan o'zi gaplashishi tarzidagi uslub essening badiiy jozibasini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, esse – intellektual mazmunga ega bo'lsa-da, u badiiy adabiyotning eng yaxshi an'analarini (obrazlilik, lirik ruh, hikoyaviy unsurlar va hokazo) o'z ichiga olgan janrdir.

Esse janrining ikkinchi qirrasini publitsistik, ya'ni ijtimoiy-jurnalistik xususiyatidir. Darhaqiqat, esseda aksariyat hollarda dolzarb ijtimoiy yoki tarixiy mavzu ko'tariladi, muallif jamiyat hayotidagi muhim hodisalar yoxud mashhur shaxslar haqida fikr yuritadi. Esse muallifi o'z qarashlarini ochiq ifoda etib, muayyan masalada aniq fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi. Matnda baholovchi, munosabat bildiruvchi so'z va iboralar ko'p qo'llaniladi – bu orqali muallif voqelikka o'z munosabatini, bahosini beradi. Publitsistik uslubga xos asosiy belgi – dolzarblik – esse uchun ham juda muhim: ko'pincha esse matni o'zi yozilgan davr kun tartibidagi masala yoki keng jamoatchilikni qiziqtirgan mavzuga bag'ishlanadi.

Publitsistik uslub tabiatini yorituvchi nazariy manbalarda quyidagicha fikrlar bildirilgan: “Publitsistik uslub hayot bilan hamqadam, jamiyat bilan jadal rivojlanadigan, shuning barobarida tilning tirik holatini “mana men” deb ko'rsatadigan uslubdir” [4; 39- b.]. Buning sababi shundaki, “U mohiyat e'tibori bilan ijtimoiylikka doxilligi bois ko'pincha mediamatnlarda davlat va jamiyatning ayni damdagi hayoti aks etadi, keng aholi ommasi yangiliklardan xabardor qilinadi, publitsistik uslubda ijtimoiylik ruhining kuchliligi aslida shundan” [3; 136- b.].

Ommaviy axborot vositalarida beriladigan ko'plab materiallar – maqola, reportaj, tahliliy sharh va boshqalar – odatda davrning dolzarb masalalariga bag'ishlanib, ular uchun o'quvchini bir qarashda o'ziga tortadigan sarlavha tanlanadi. “Mediamatnlarda davrning dolzarb masalalariga bag'ishlanib, ularga bir qarashda o'quvchi diqqatini tortadigan, matni o'qib ko'rish istagini uyg'otadigan sarlavhalar tanlanadi” [4; 39- b.]. “Chunki matnning asosiy g'oyasini oldindan tasavvur qilish, mushtariylar diqqatini unga jalb qilishda sarlavha katta rol o'ynaydi” [4; 39- b.]. Xuddi shunday, esse uchun ham muhim jihat – o'quvchini darhol o'ziga jalb qiladigan ifodali uslub va ohangda yozishdir. Darhaqiqat, publitsistik ruhda har qanday asar singari, esse ham

o'quvchini befarq qoldirmasligi, uning e'tiborini tortishi lozim. Chunki auditoriyani o'ziga jalb qilish uchun, yozma ommaviy axborot vositalari nafaqat o'quvchilarga qiziqarli ma'lumot berishi, ushbu ma'lumotni to'g'ri shaklda yetkaza olishi ham lozim bo'ladi [5; 158- b.].

Esse janrida muallif ko'tarayotgan mavzu odatda jamiyat uchun muhim bo'ladi. Shunday ekan, esse bevosita o'quvchi – keng jamoatchilikka murojaat qiladi. Bunday matnda muallif o'z mulohazalari orqali jamiyat a'zolariga muayyan xulosa yoki xabarni yetkazishga, ularda qandaydir fikr uyg'otishga intiladi. Publitsistik janr tabiatidan kelib chiqib, esse muallifi ko'pincha o'quvchining dunyoqarashiga ta'sir o'tkazishni maqsad qiladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Publitsistik matnning muallifi o'quvchining ijtimoiy-fuqarolik, intellektual, emotsional sohalariga ta'sir o'tkazadi. Ya'ni publitsistik matn jumladan, esse o'quvchining nafaqat tafakkuriga, balki tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishi, uni ma'naviy jihatdan quvvatlashi yoki hayajonga solishi mumkin. "Jurnalist matni – auditoriyaga yo'naltirilib, o'z hukmini o'tkazadigan energiya manbaidir" [6; 92- b.]. Bu jihatdan esse ham o'z o'quvchisiga ma'lum ma'noda "hukmini o'tkazadigan", ya'ni muallifning qarashlarini singdiradigan kuchga ega bo'lishi kerak.

Jurnalistika (publitsistika) faoliyatining bosh maqsadi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni baholash va shu bahoni omma ongiga singdirishdan iboratdir. "Jurnalistika faoliyatining asosiy maqsadi – dolzarblikni baholash va ushbu baholashni omma ongiga singdirish" [6; 92- b.]. Esseda ham ko'pincha muallif voqelikka o'z bahosini beradi va o'quvchini shu bahoga qo'shilishga yoki hech bo'lmaganda u haqida mulohaza yuritishga undaydi. Shu ma'noda, esse o'quvchini nafaqat xabardor qiladi, balki uni fikrlashga, muhokamaga chorlaydi. Albatta, bunday ta'sirning muvaffaqiyati ko'p jihatdan matnning sifati va o'quvchi qiziqishini uyg'ota olishiga bog'liq. Tadqiqotchilar jurnalistik matnlarning samaradorligi haqida: "Jurnalistik matnning umumiy funksional samaradorligi auditoriya qiziqishini qondirish darajasi va axborotning to'g'ri dozalanganligiga bog'liq" [2; 192- b.]. deb ta'kidlashadi. Demak, esse yozuvchi ham o'z asarining ta'sirchan bo'lishini ta'minlash uchun o'quvchi ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olishi, matndagi axborot va mulohazalarni to'g'ri "dozalash"ni bilishi lozim.

Yuqoridagi badiiy va publitsistik jihatlarining sintezi natijasida esse janri yuzaga keladi. Ayrim tadqiqotchilar bu janrni "ikki qirrali" janr yoki "sintez janr" deb ham atashadi, chunki unda adabiy-badiiy tafakkur bilan ijtimoiy-publitsistik tafakkur kesishadi. Darhaqiqat, essenini to'liq badiiy adabiyotga ham, xolis publitsistikaga ham kiritish mushkul; u ikkisining chegarasida turib, o'ziga xos mukammal shaklga ega. Esse yozuvchiga go'yo birvarakayiga ikkita minbardan turib gapirish imkonini beruvchi janrga o'xshaydi: u bir minbarda ijodkor-adib sifatida badiiy so'z aytsa, ikkinchi minbarda fuqaro-jurnalist sifatida jamiyatga murojaat qiladi. Aynan shu janrlararo xususiyat tufayli esse o'quvchiga ikki xil – estetik va ijtimoiy-intellektual – ta'sirni bir vaqtning o'zida o'tkaza oladi.

Nazariy jihatdan esse janri adabiyotdagi sintez hodisasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U adabiy janrlar evolyutsiyasi jarayonida paydo bo'lgan bo'lsa-da, an'anaviy janr tasniflariga bo'ysunmaydi. Masalan, adabiyotda janrlar o'rtasidagi chegaralar qat'iy emasligining yaqqol dalili sifatida esse janrini keltirish mumkin – ilmiy va badiiy uslub, lirik va epik tafakkur, hujjatlilik va xayoliylik kabi qarama-qarshi tushunchalar esse doirasida birlashadi. Shu sababli esse ba'zan "pog'onalararo janr" deb ham talqin qilinadi va alohida estetik mezonlari bilan ajralib turadi. Eng muhimi, esse janri adabiy jarayonda yangilik, erkinlik va ijodiy tajriba maydoni vazifasini o'tamoqda.

Yuqorida keltirilgan mulohaza va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, esse janri haqida jahon va o'zbek adabiyotshunosligida muayyan nazariy qarashlar shakllangan. Jahon adabiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, esse – erkin kompozitsiyaga ega, subyektiv fikr ifodasiga asoslangan, badiiy-estetik va publitsistik unsurlarni uyg'unlashtirgan maxsus janrdir. Esse asar muallifning shaxsiy dunyoqarashi va uslubini namoyon etish imkonini beradi, shu bilan birga, o'quvchi tafakkuriga ta'sir ko'rsatib, uni muhim masalalar haqida o'ylashga undaydi. "Essening asosiy

vazifalaridan biri o'quvchi tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, uni "men va olam" kabi muhim masalalar ustida o'ylashga undashdan iboratdir" [1; 439- b.]. Shu tariqa, esse o'z vazifasini ado etadi – muallif va o'quvchi o'rtasida samimiy muloqot o'rnatadi, mushtariyni teran fikrlashga chorlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham esse janriga oid tadqiqotlar so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, mustaqillik davrida esse alohida e'tibor qozonib, milliy adabiy jarayonda o'z mavqeini topdi. Bugungi o'zbek adabiyotida esse erkin, subyektiv, badiiy-publitsistik janr sifatida qaralmoqda va ko'plab adiblar tomonidan ijodiy qo'llanilmoqda. Bu janrning rivoji o'zbek adabiy tanqidchiligi va nasrining mavzuviy hamda uslubiy boyishiga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyotida esse janrining o'rganilishi va taraqqiy etishi ko'p jihatdan iste'dodli adib Ibrohim G'ofurov nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning ijodi misolida esse janri imkoniyatlari va o'ziga xosliklari yaqqol namoyon bo'lgan. Xulosa o'rnida aytganda, esse – adabiyot va publitsistika chorrahasida yuzaga kelgan betakror janr bo'lib, uning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirish milliy adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotshunosligida "esse" atamasi nisbatan yangi hodisa bo'lsa-da, uning ilhom manbalari va dastlabki ko'rinishlari o'tgan asrning 60-70-yillariga borib taqaladi. Mustaqillik yillarida chinakam erkin fikr minbariga aylangan bu janr badiiy adabiyotning nafosati hamda publitsistikaning o'tkir ijtimoiy ruhini o'zida ajoyib tarzda mujassam eta oldi. Ibrohim G'ofurov, Ozod Sharafiddinov kabi yetuk ijodkorlar asarlarida esse o'zining eng yuksak estetik va ijtimoiy cho'qqilariga ko'tarildi.

Demak, essen shunchaki adabiy shakl emas, balki muallif qalbining lirik in'ikosi va jamiyatning dolzarb muammolariga ochiq fuqarolik munosabatini ifodalovchi murakkab sintetik janr sifatida baholash lozim. U bir vaqtning o'zida kitobxonga ham estetik zavq beradi, ham intellektual va ijtimoiy mushohadaga chorlaydi. Ushbu janrning nazariy va amaliy qirralarini yanada chuqurroq tadqiq etish, uning o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganish bugungi milliy adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb va istiqbolli vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари. V жилд. – Тошкент: «O'zbekiston», 2019. – 438 б.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent, 1991.
3. Toxirov Z. T. Adabiy tahrir. – Toshkent: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012.
4. Odilov Y., Sobirova M. Media tili va uslub. – Toshkent: «Bookmany print», 2024.
5. Shamaqsudova S. Media tili va uslubi. – Toshkent: «Universitet», 2021.
6. Teshabayeva D. M., Ballom G. X., Isroil M. I., Toshmuhamedova L. I., Nuritdinova M. Ch. Media lingvistika va tahrir. III jild. – Toshkent: «O'zbekiston», 2019.